

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “ 1 ” aprel dagi
513 sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
Boshqaruv raisi v.b

 O. Butayev
(ro'yxat raqami M-20/487,
2026-yil “ 8 ” aprel)

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bank tizimida xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha

YO'RIQNOMA
(yangi tahrirda)

Toshkent – 2026



“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel dagi
513 sonli qaroriga
10 ilova

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bank tizimida xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bank tizimida xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma (keyingi o‘rinlarda – Yo‘riqnoma) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va yetakchi jahon amaliyotlari, shu jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari - Qo‘llash bo‘yicha talab va tavsiyalar” xalqaro standartining talab va tavsiyalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi hamda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlari va KQKT sohasidagi normativ hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustavi hamda ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Yo‘riqnoma bank tizimida xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalarni belgilaydi.

3. Ushbu Yo‘riqnoma korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi masalalari boshqa ichki qoidalariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

4. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti (keyingi o‘rinlarda - KQND) – bankda korrupsiyaga qarshi kurashish nazoratni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linma;

pora – davlat xizmatchisi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tomonidan shaxsan yoki vositachi orqali moddiy boyliklarni noqonuniy qabul qilib olishi yoki pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab

bajarganligi yoki bajarmaganligi uchun mulkiy foyda olishi, davlat xizmatchisi o'zining xizmat lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi kerak bo'lgan yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan harakat;

tovlamachilik, tamagirlik – jabrlanuvchining shaxsi yoki unga yaqin shaxslarga nisbatan zo'ravonlik tahdidi ostida birovning mol-mulkini yoki boshqa birovning mulkiga bo'lgan huquqni berishni talab qilish, mulkiy nafaqa berish yoki mulkiy xarakterdagi harakatlarni sodir etish, mulkka zarar yetkazish yoki yo'q qilish yoki ular sir saqlamoqchi bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish yoki jabrlanuvchining mulkini yoki mulk huquqini berishga majbur qiladigan muhit yaratish orqali o'zganing mulki yoki mulk huquqini talab qilish;

davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmati turi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat organlarining davlat xizmati lavozimlarida o'z vakolatlarini amalga oshirishini ta'minlash bo'yicha kasbiy haq to'lanadigan faoliyati;

mehmondo'stlik belgilari – ko'ngilochar tadbirlar, kechki ovqatlar, ziyofatlar, ijtimoiy yoki sport tadbirlari va hokazolarga taklifnomalar, potensial yoki mavjud mijoz va/yoki kontragent uchun odatdagi tijorat shartnomasida nazarda tutilmagan yo'l xarajatlari va unga tegishli boshqa xarajatlarni to'lash;

korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

kontragent – bankning xarid qilish jarayoni doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korruptsiya jinoyati – qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan korruptsiya belgilariga ega bo'lgan xatti-harakat;

tijorat poraxo'rliqi – nodavlat tijorat yoki boshqa nodavlat tashkilotning mansabdor shaxsiga pora berish bilan shug'ullanadigan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik uchun moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni bila turib noqonuniy ravishda taqdim etish, ko'rsatilgan mansabdor shaxs: o'z vakolatlaridan foydalangan holda amalga oshirgan yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakat;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

sovg'a – Oluvchi uchun foydali bo'lgan pul ifodasiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan har qanday moddiy va nomoddiy boyliklar, shu jumladan, xizmatlar, kreditlar, kredit kafolatlari, ko'chmas mulkdan foydalanish, ish taklif qilish, xarajatlar, qarzlarni to'lovi va boshqalar;

reyestr – Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi masalalari bo'yicha o'qitilgan barcha xodimlar haqida batafsil ma'lumotlar;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (KQKT) – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki normativ hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy va axloqiy faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

ISO 37001:2016 standarti – ISO 37001:2016 Xalqaro standart talabi va tavsiyalari "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – foydalanish bo'yicha talab va tavsiyalar".

2-bob. O'qitishning asosiy tamoyillari

5. Bank xodimlarini o'qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

xolislik va ilmiylik – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallarni tayyorlash uchun mas'ul shaxslar ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta'minlaydi;

amaliy jihatdan qulaylik – Bank xodimlarini o'qitish shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, real vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va ularni aniq amaliy vazifalarni hal etishda qo'llash imkoniyatini nazorat qilinishini o'z ichiga olishi lozim;

ketma-ketlilik va tizimlilik – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallari, shuningdek Bank xodimlarini o'qitish tartibi izchil va tuzilmaviy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. o'qitish umumiy tushunchalar va voqeliklardan juz'iyalariga, oddiydan murakkabga, boshlang'ichdan mukammalga va h.k o'tish asosida amalga oshiriladi;

hammaboplik – o'qitish Bank xodimlarining joriy bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olish, Bankning barcha xodimlari uchun tushunarli bo'lgan o'quv materiallarini shakllantirish;

differensiallangan yondashuv – Bankda korrupsiyaga qarshi o'qitish aniq funksiyalar va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo'shimcha ravishda maxsus o'qitiladi;

o'qitish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish – Bank o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek Bank xodimlari tomonidan

bilimlar o'zlashtirilganini tekshirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga harakat qiladi.

3-bob. Asosiy maqsad va vazifalari

6. Mazkur Yo'riqnomaning maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

- xodimlarni O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi to'g'risidagi qonun hujjatlari normalariga amal qilish bo'yicha o'qitish jarayonini rasmiylashtirish;
- xodimlarni o'qitish tizimining samaradorligini oshirish;
- korrupsiyaga qarshi dunyoqarash, shaxsning mustahkam axloqiy asoslari, fuqarolik pozitsiyasi va korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarning barqaror ko'nikmalarini shakllantirish.

7. Mazkur Yo'riqnomaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- korrupsiya haqida umumiy tushuncha, uning mohiyati, jamiyatning turli sohalarida hamda bankning funktsiya va tartib-taomillarida namoyon bo'lish shakllari va o'ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlari to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va bankning boshqa ichki qoidalari bilan belgilangan korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarning ahloqiy va ma'naviy qadriyatlariga qat'iy va so'zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;
- bank xodimlarini korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan bank tamoyillari, talablari va tartiblari bilan tanishtirish;
- korrupsiya xavflarining paydo bo'lishiga olib keladigan shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish;
- korrupsiyaning namoyon bo'lishiga murosasizlikni shakllantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish imkoniyatini namoyish etish;
- huquqiy savodxonlik asoslarini shakllantirish.

4-bob. O'quv rejasi hamda materiallar ishlab chiqish va o'qitishni o'tkazishga mas'ul shaxslar

8. KQND xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek, Bankda bunday o'qitishni monitoring va nazorat qilish uchun mas'uldir.

9. KQND Bank xodimlarini o'qitish rejalarini tayyorlaydi, Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o'quv materiallarni ishlab chiqadi va o'qitish o'tkazilishini muvofiqlashtiradi.

10. Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti o'qitiladigan xodimlarning ro'yxatini shakllantiradi hamda o'qitishda xodimlarning to'liq ishtirok etishini va o'qitish intizomini nazorat qiladi.

11. KQND korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasida tegishli o'quv tajribasiga ega bo'lgan xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar (Bankda belgilangan tartibda) asosida o'quv materiallarini tayyorlash va o'qitishlarni o'tkazish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

12. Xodimlarning yetarlicha xabardorligini ta'minlash va korrupsiya xavfini baholash natijalarini hisobga olgan holda, bunday o'qitish quyidagi masalalarni qamrab olishi kerak:

a) bankning korrupsiyaga qarshi siyosati, tartib va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi, shuningdek bank xodimlarining ularga rioya qilish majburiyatlari;

b) korrupsiya xatarlari va ularning xodimlar va bankka yetkazgan zararlari;

d) xodimlarning xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq korrupsiyaga urinish sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlari;

e) tovlamachilik urinishlari yoki pora takliflari va ularga javob berish;

f) xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligiga qo'shgan hissasi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish ko'rsatkichlarini yaxshilash va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlarning rahbariyat tomonidan rag'batlantirilishi;

g) sovg'alar va mehmondo'stlik belgilarini berish va qabul qilish sohasidagi asosiy tartib va qoidalar;

h) manfaatlar to'qnashuvini qanday tan olish kerak, bu nima va uni tartibga solish bo'yicha qanday choralar mavjud;

i) manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi;

j) bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo'yicha ichki qoidalari talablarini bajarmaslikning asoratlari va potensial oqibatlarini;

k) xodimlar har qanday shubha haqida qanday va kimga xabar berishlari mumkin;

l) mavjud ta'lim va resurslar haqida ma'lumotlar.

13. KQND har yili korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi masalalari bo'yicha o'quv rejasini tuzadi va 31-dekabrgacha uni Bank Boshqaruv raisi/rais o'rinbosariga tasdiqlash uchun taqdim etadi (1-Illova).

O'quv rejasiini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi o'qitish muddatlari hisobga olinadi.

O'quv rejasida albatta o'qitish kursi nomi, sanasi, shuningdek o'qitish tayinlangan lavozimlar ko'rsatiladi.

14. Tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq, KQND xodimlari xodimlarni o'qitish boshlanishidan 3 (uch) ish kuni oldin o'qitish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi.

15. Xodimlar tomonidan belgilangan muddat ichida uzrli sabablarga (yuqori mavsumiy ish yuki, kasallik ta'tillari, rejalashtirilgan ta'til va boshqalar) ko'ra o'qish imkoniyati bo'lmasa xodim o'qitish boshlanishidan oldin o'qishni boshqa sanaga o'tkazish bo'yicha KQNDni xabardor qilishi shart.

5-bob. O'qitish turlari va muddatlari

16. Bankning barcha xodimlari, o'zlari egallab turgan lavozimlaridan qat'iy nazar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi masalalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga hamda bankning ichki qoidalariga rioya qilish bo'yicha o'qitilishi shart.

O'qitish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o'qitish, uchinchi shaxslar bilan qo'shma konferensiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

17. Xodimlarga KQND tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sahasida quyidagi turdagi o'qitishlar o'tkaziladi:

- kirish darslari - bank xodimlari ishga qabul qilinganidan yoki yangi lavozimga o'tkazilgandan keyin 1 (bir) oy ichida kirish darslaridan o'tishlari shart;

- rejali o'qitish - bank xodimlari vaqti-vaqti bilan yiliga kamida 1 (bir) marta rejalashtirilgan o'qitishdan o'tishlari lozim;

- rejadan tashqari o'qitish - bank xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo'yicha ichki siyosati va tartib-qoidalariga o'zgartirishlar kiritilganda, shuningdek bank rahbariyati va KQND talab va takliflari bo'yicha rejadan tashqari tayyorgarlikdan o'tishlari shart.

18. Bank xodimlari quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yiliga bir martadan ko'p o'qitiladi:

- xodimning egallab turgan lavozimi korrupsiya xavfi "yuqori" lavozimlar ro'yhatiga kiritilgan bo'lsa;

- xodimni korrupsiya xavfi "yuqori" lavozimlar ro'yhatiga kiritilgan lavozimga tayinlash va almashtirishda;

- bankning muayan bo'linmasi faoliyatida korrupsiya bilan bog'liq holatlar aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan faoliyatida korrupsiya xavfi darajasi oshganda;

- bank rahbariyatining qarori bilan.

19. Xodimlarni xodimlar bilan uchrashgan holda o'qitish KQNDning Monitoring va xodimlarni o'qitish sho'basi xodimlari tomonidan mustaqil ravishda yoki tashqi ekspertlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi mutaxassislarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

20. O'qitish quyidagi o'quv dasturlarini ko'zda tutishi lozim:

barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish;
korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish;

bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish.

21. Umumiy korrupsiyaga qarshi o'qitish bankning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

22. Bankning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish amaliy yo'naltirilgan bo'lishi va quyidagi yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi, Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, jumladan o'rnatilgan ta'qiqlar, cheklovlar, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qo'yilgan talablar, Bank xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari aniqlanganda harakatlar ketma-ketligiga doir ichki hujjatlarini bilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotiga doir bilimlar;

olingan bilimlarni qo'llash ko'nikmalari, jumladan bankning turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, bankda o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qo'llay bilish.

23. Bank xodimlari yiliga 2 (ikki) marta umumiy korrupsiyaga qarshi o'qitish natijalari bo'yicha o'rganilgan material qanchalik o'zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

24. Bank xodimlari savollarning kamida 60 foiziga to'g'ri javob bergan taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitishni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 60 foizidan kamiga to'g'ri javob bergan bo'lsa, u takroriy test sinovlarini test topshirgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida topshirishi mumkin.

Agar xodim takroriy testda ham savollarning 60 foizidan kamrog'iga to'g'ri javob bergan bo'lsa, uch oy tayorgarlik ko'rish uchun vaqt beriladi. Shunda ham testdan o'ta olamasa, xodim bo'yicha yakuniy qarorni qabul qilish uning ish beruvchi rahbari ixtiyoriga qoldiriladi.

25. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitishdan mustaqil (qo'shimcha) ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha yillik o'quv rejasida belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

26. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Bankning Bosh ofisi, hududiy boshqarmalari, BXO va BXMLarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq KQND tomonidan shakllantiriladi.

27. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim:

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlari;

uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillarga xos bo'lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qo'shimcha talab va tartib-taomillarni o'z ichiga oluvchi ichki hujjatlar.

28. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday o'qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (tashkilotlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali o'tkaziladi.

29. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchiligidagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi ilg'or xalqaro metodikalarni o'rganishni o'z ichiga olishi lozim.

30. Ushbu Yo'riqnomaning 28-bandida ko'rsatib o'tilgan malaka oshirish va treninglardan o'tish yiliga kamida 10 (o'n) soatni o'z ichiga olishi lozim.

31. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo'yicha o'qitish xodimlar bilan uchrashgan holda (offline) yoki masofaviy (online) o'qitish shaklda o'tkazilishi mumkin.

6-bob. Korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlarni egallagan shaxslarni o'qitish

32. Bankning Bosh ofisi, hududiy boshqarmalari, BXO va BXMLarida korrupsiya xavfiga eng ko'p duch keladigan lavozimlar ro'yxati korrupsiya xatarlarini baholash metodologiyasiga muvofiq shakllantiriladi va o'quv rejasiga asosan o'qitish ishlari amalga oshiriladi.

33. Korrupsiya xavfiga eng ko'p duchor bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitish quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- korrupsiya xavfiga eng ko'p duch keladigan ayrim funksiyalar va faoliyatlardagi korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlari;
- korrupsiya xavfiga eng ko'p duch keladigan ba'zi funksiyalar va faoliyatlarda korrupsiya xavfini aniqlash va minimallashtirish usullari;
- kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda korrupsiya xavfiga eng sezgir bo'lgan aniq funksiyalar va faoliyatlarga xos bo'lgan korrupsiyaga qarshi talablar;
- bankning korrupsiya xavfiga eng ko'p duch keladigan aniq funksiyalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan qo'shimcha talablar va tartiblarni o'z ichiga olgan ichki normativ hujjatlar.

34. Korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlarni egallagan shaxslarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish yiliga kamida 1 (bir) marta malaka oshirish (seminar, trening va boshqalar) shaklida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasida tashqi mutaxassislarni jalb qilish bilan amalga oshiriladi.

35. Korrupsiyaga qarshi kurashish xavfi yuqori bo'lgan lavozimlarni egallab turgan shaxslarni maxsus o'qitish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi to'g'risidagi qonunchiligidagi o'zgarishlarni o'rganish, bank korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirish va bankda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga olishi kerak.

7-bob. O'qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

36. Bankning KQND olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o'quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug'dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari bo'yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o'quv materiallari korrektirovka qilinishini (zarurat tug'ilganda) ta'minlaydi.

37. Xodim unga tayinlangan o'quv yoki uning natijalari bo'yicha test sinovlaridan belgilangan muddatlarda o'tmasa, KQND bunday xodimning rahbarini unga nisbatan tegishli qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.

38. O'quv va sinov natijalariga ko'ra KQND doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qilish bo'yicha o'qitilgan xodimlarning reyestri tayyorlaydi va yuritadi (3-llova).

39. Bank korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasida olib borilgan o'qitish bo'yicha hujjatlarni saqlashi zarur.

O'qitish jadvali, test natijalari, o'tkazilgan o'qitish bayonnomasi, o'qitilgan xodimlarning reyestri va xodim o'qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar KQNDda saqlanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

40. Mazkur Yo'riqnoma bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

41. Mazkur Yo'riqnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, o'z kuchini yo'qotgan deb topish bank Boshqaruvi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

42. Bank rahbariyati mazkur Yo'riqnomada belgilangan talablarni joriy etish samaradorligini nazorat qilishni amalga oshiradi.

43. Mazkur Yo'riqnomada belgilanmagan holatlar amaldagi qonunchilik hamda bankning ichki qoidalari talablari asosida tartibga solinadi.

44. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Yo'riqnomaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.


45. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Yo'riqnomada keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli tartib qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

46. Bank xodimi egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqei va boshqa omillardan qat'iy nazar mazkur Yo'riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

47. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi masalalari bo'yicha o'z vaqtida o'qitish va sinovdan o'tmagan xodimlar lavozim vazifalarini bajarishdan chetlashtiriladi.

48. Mazkur Yo'riqnoma kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2022-yil 21-oktabrdagi 100-2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATB tizimida xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma o'z kuchini yo'qotadi.

B/ramm?
Storacep



“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bank tizimida
xodimlarni korruptsiyaga qarshi kurashish
sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha
Yo'riqnomaga
1-ilova

“Mikrokreditbank” ATB xodimlari uchun Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha
o'quv rejasi

Nº	O'qitiladigan xodimlar (Bosh ofis yoki hududiy boshqarmalar (BXO, BXM))	O'quv kursi mavzusi	O'qitish shakli (online /offline)	Kim tomonidan o'qitiladi (Bosh ofis xodimlari tomonidan yoki autsors tomonidan)	Muddati
1	Barcha xodimlar	"Korruptsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish"			
2	Bosh ofisning xavf yuqori lavozimlaridagi xodimlari uchun	"Tizimda korruptsiyani oldini olishning huquqiy asosalari"			
3	Hududiy boshqarmalar (BXO, BXM) xavf yuqori lavozimlar xodimlari uchun	"Tizimda korruptsiyani oldini olishning huquqiy asosalari"			
4	Barcha xodimlar	"Korruptsiyaga qarshi kurash va Manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning huquqiy asoslari"			
5	Ishga yangi qabul qilingan barcha xodimlar uchun	"Korruptsiyaga qarshi kurash va Manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning huquqiy asoslari"			
6	"E-anticor" elektron platformasi mas'ul xodimlari uchun	"Mikrokreditbank" ATBda Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi"			

7	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi hududiy boshqarma xodimlari uchun	"Mikrokreditbank" ATBda Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi"			
8	Barcha xodimlar	"Biz-korrupsiyaga qarshimiz" (anonim so'rovnomasini tashkil qilish)			
9	Barcha xodimlar	"Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xodimlarning bilim va salohiyatini sinovdan o'tkazish maqsadida test so'rovlari tashkil qilish."			

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bank tizimida
xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha
Yo'riqnomaga
2-ilova

20__ yil uchun “Mikrokreditbank” ATB xodimlarini o'qitish jadvali.

No	O'qitish o'tkazish davri	O'quv kursi mavzusi	O'qitish shakli (online /offline)	Kim tomonidan o'qitiladi Mas'ul	filliali
Ishga yangi qabul qilingan xodimlar uchun					
1	Yanvar	1. Korrupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korrupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalarini bilan tanishish			
2	Fevrel	1. Korrupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korrupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalarini bilan tanishish			
3	Mart	1. Korrupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korrupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalarini bilan tanishish			
4	Aprel	1. Korrupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korrupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish			

		maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
5	May	1. Korupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
6	Iyun	1. Korupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
7	Iyul	1. Korupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
8	Avqust	1. Korupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
9	Sentabr	1. Korupsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korupsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			

10	Oktabr	1. Korruptsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korruptsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
11	Noyabr	1. Korruptsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korruptsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
12	Dekabr	1. Korruptsiyaning oldini olish va halollikni targ'ib qilish 2. Korruptsiya tushunchasi va uning turlari 3. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni oldini olish maxanzlari 4. Departamentning ichki qoidalar bilan tanishish			
Huquqni muhofaza qiliuvchi xodimlar bilan hamkorlikda barcha xodimlar uchun					
13	Yanvar	"Tizimda korruptsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
14	Fevrel	"Tizimda korruptsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
15	Mart	"Tizimda korruptsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
16	Aprel	"Tizimda korruptsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
17	May	"Tizimda korruptsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			

18	Iyun	"Tizimda korrupsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
19	Iyul	"Tizimda korrupsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
20	Avqust	"Tizimda korrupsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
21	Sentabr	"Tizimda korrupsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
22	Oktabr	"Tizimda korrupsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
23	Novabr	"Tizimda korrupsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
24	Dekabr	"Tizimda korrupsiyani oldini olishning huquqiy asosalari" Misollar yordamida tahlillarga ko'ra			
Bosh ofis va hududiy boshqarmalar (BXO, BXM) xavf yuqori lavozimlar xodimlari uchun					
25	Yanvar	1. Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va boshqarish 2. Xavf-xatarlarni baholash va oldini olish metodlari 3. Xizmat sirini oshkor etmaslik majburiyati 4. Kreditlash jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yimaslik			
26	Mart	1. Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va boshqarish 2. Xavf-xatarlarni baholash va oldini olish metodlari 3. Xizmat sirini oshkor etmaslik majburiyati 4. Kreditlash jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yimaslik			

27	Apr	1. Korruptsiyaviy xavflarni-anisqlash va boshqarish 2. Xavf-xatarlarni baholash va oldini olish metodlari 3. Xizmat sirini oshkor etmaslik majburiyati 4. Kreditlash jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymaslik			
28	Iyul	1. Korruptsiyaviy xavflarni-anisqlash va boshqarish 2. Xavf-xatarlarni baholash va oldini olish metodlari 3. Xizmat sirini oshkor etmaslik majburiyati 4. Kreditlash jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymaslik			
29	Oktabr	1. Korruptsiyaviy xavflarni-anisqlash va boshqarish 2. Xavf-xatarlarni baholash va oldini olish metodlari 3. Xizmat sirini oshkor etmaslik majburiyati 4. Kreditlash jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymaslik			
Bankning barcha xodimlari uchun					
30	Fevral	1. Bank tizimida hallollik va shaffoflik tamoyillari 2. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati 3. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish 4. Korruptsiyaning jamiyat va bank tizimiga salbiy tasiri			
31	Apr	1. Bank tizimida hallollik va shaffoflik tamoyillari 2. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati 3. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish 4. Korruptsiyaning jamiyat va bank tizimiga salbiy tasiri			
32	Iyun	1. Bank tizimida hallollik va shaffoflik tamoyillari 2. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati			

		3. Manfaatlarni to'qnashuvini oldini olish 4. Korrupsiyaning jamiyat va bank tizimiga salbiy tasiri			
33	Avqust	1. Bank tizimida hallollik va shaffoflik tamoyillari 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati 3. Manfaatlarni to'qnashuvini oldini olish 4. Korrupsiyaning jamiyat va bank tizimiga salbiy tasiri			
34	Oktabr	1. Bank tizimida hallollik va shaffoflik tamoyillari 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati 3. Manfaatlarni to'qnashuvini oldini olish 4. Korrupsiyaning jamiyat va bank tizimiga salbiy tasiri			
35	Dekabr	1. Bank tizimida hallollik va shaffoflik tamoyillari 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati 3. Manfaatlarni to'qnashuvini oldini olish 4. Korrupsiyaning jamiyat va bank tizimiga salbiy tasiri			
36	Yil davomida	"Biz-korrupsiyaga qarshimiz" (anonim so'rovnomani tashkil qilish			
37	Yil davomida	"Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xodimlarning bilim va salohiyatini sinovdan o'tkazish maqsadida test so'rovlari tashkil qilish.			

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bank tizimida
xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha
Yo'riqnomaga
3-ilova

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi masalalari bo'yicha treningdan o'tgan xodimlar
reystri / jurnali

Xodimning F.I.O. va lavozimi	Departament / Bo'lim	O'qitish turi <i>Kunduzgi / sirtqi (boshlang'ich, rejali, rejadan tashqari)</i>	Trening o'tkazilish sanasi	Test natijalari <i>(to'plangan ballar miqdori)</i>	Xodim imzosi